

**BOSHLANG‘ICH SINF FANLARINI O‘QITISHDA O‘QUV JARAYONINI
TASHKIL ETISH VA UNING SIFATINI TA‘MINLASH BORASIDAGI
ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR**

Musoyev Ulug‘bek Ashraf o‘g‘li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda yangi zamonaviy pedagogic texnologiyalarni o‘zlashtirishga e‘tiborni yanada ham kuchaytirish, dars mashg‘ulotlari sifatini yaxshilash, uni jahon andozalari darajasiga yetkazish o‘qituvchi – o‘quvchilar uchun asosiy ta‘lim maqsadlaridan biriga aylantirish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, og‘zaki nutq, yozma nutq, interfaol metodlar.

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta‘lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan o‘qitish metodlaridan voz kechish bilan birga, ularni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Bugungi kunda ayniqsa boshlang‘ich ta‘lim sifati ilg‘or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta‘lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo‘lga qo‘yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida“ gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2025-yilgacha maktablarning 20 foizi 2030- yilga qadar esa 50 foizini, , zamonaviy maktab” larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Shuningdek, maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Maktablarda moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilash, o‘quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha vazifalarini belgilab berdi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, pedagogik

jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyektini sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyektini - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Birinchi, barcha ilg'or xorijiy tajribalar ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanganadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi.

Ikkinchi, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Zamonaviy metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizuallari vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Ma'lumki, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib

chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “**Aqliy hujum**”, “**Fikrlar hujumi**”, “**Tarmoqlar**” **metodi**, “**Sinkveyn**”, “**BBB**”, “**Beshinchisi ortiqcha**”, “**Bahs-munozara**”, “**Rolli o‘yin**”, “**Zigzag**” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Shunday ekan, u ilg‘or pedagogik tajribalar asosida darsni tashkil etish va ta’lim sifati, samaradorligini oshirishda o‘z hissasini qo‘shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmazligi lozim.

Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq taxnologiyasi ko‘rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Galperin P. Ya. Maktab o‘quvchilarida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish muammolari va maktabda o‘qitishning yangi usullari / Galperin P. Ya., Zaporozhets NV, Elkonin D.B. - M.: Ta’lim., 1963.
2. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilmfan (metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. Yo‘ldoshev J.G, Usmonov, S.A, Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T. Fan va texnologiya. 2008.
4. Qayumova N.A O‘qitishning axborot-ta’lim tizimi sharoiti va unda axborot kamunikatsiya texnologiyalari soxasi o‘qituvchilarini tayorlash. Monografiya-T: “Fan va texnologiya”, 2015